ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОНСОЛИДИРОВАННОЙ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ	1338
Махмудова Наргиза Давлят кизи	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BUXGALTERIYA HISOBIDAGI TA'SIRI	1343
Mardonov Mamed Shavkatovich, Suyunov Raxmatillo Raximberdi o'g'li	
АНАЛИЗ И СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВО-ДЕЛОВОЙ АКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ	1347
Ахмедова Азиза Тохириевна	



MAKROIQTISODIY TEBRANISHLAR VA IQTISODIY SIKLLAR: SABABLARI VA RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	1352
Muxammedov Murod Muxamedovich	
O'ZBEKISTONDA VAZIRLIK VA IDORALARDA ICHKI AUDIT XIZMATLARI FAOLIYATINI BAHOLASH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	1356
Ibragimova Muxlisa Abdulxakimovna	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TURISTIK-REKREATSION SALOHİYATNING MAZMUNI VA ILMIY TALQINI.....	1362
Usmanova Zumrad Islamovna	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1366
He Xiaocu, Уркинбаев Т. А.	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA MOLIYAVIY JIHATLARI TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI.....	1370
Ruziyeva Dilobar Isomjonovna, No'monova Hilola Muftillo qizi	
SUG'URTA VA FOND BOZORLARI O'RTASIDAGI O'ZARO INTEGRATSIYA BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI.....	1375
Kengesbaeva Suluxan Maxsetbay qizi	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ЭКСПОРТА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИИ РЕГИОНА.....	1380
Тулибаева Камола	
АНАЛИЗ ЛИКВИДНОСТИ БАНКОВ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ.....	1385
Ходжаева Феруза Авазхановна	
XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO TAHLILI VA ISTIQBOLLARI.....	1389
Qurbanov Feruz Bahramovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA INSON KAPITALINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI.....	1395
Alimova Oydin Baxtiyarovna	
OUTSOURCING: A MODERN WAY TO INCREASE THE EFFICIENCY OF ENTERPRISES.....	1402
Dauletaliyeva Aymereke Sagievna	
O'ZBEKISTONDA YUK VAGONLARINI ISHLAB CHIQRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1406
Kaydarov Ismatulla	
O'ZBEKISTONDA INNOVATSION FAOLIYATNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA INNOVATSION INFRATUZILMANING RIVOJLANISHI.....	1412
Tursunova Nazokat Tolibjonovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA AKTIVLAR SIFATINI MUSTAQIL BAHOLASH (AQR) MARKAZINI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI.....	1418
Suxrob G'aybulloev	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING BUDJET MABLAG'LARIDAN OQILONA FOYDALANISHNI TA'MINLASHDAGI O'RNI.....	1427
Kasimova Gulyor Axmatovna, Esenbayeva Biybinaz Maxmut qizi	
INNOVATSION MENEJMENT METODOLOGIYASI: NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMIDAGI AHAMIYATI.....	1432
Atamatov Abduxalil Salomovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIGA INVESTITSİYALARNI "CROWD INVESTING" PLATFORMALARI ORQALI JALB ETISH.....	1437
Ibragimov G'anjon G'ayratovich	
TURIZM KLASSTERLARINING EVOLUTSIYASI: AN'ANAVIY MAJMUALARDAN RAQAMLI KLASSTERLARGACHA.....	1441
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi	
IPO O'TKAZISH BOSQICHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI TAHLILI.....	1446
Mamatmurodov Alisher Saparboyevich	



RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA KORPORATIV MADANIYATNING ZAMONAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI.....	1455
Suyunov Dilmurod Xolmuradovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SUV RESURSLARINI SAMARALI TAQSIMLASHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1463
Amanbaev Amanali Ortazbaevich	
FORECASTING THE EFFICIENCY OF SOLID WASTE RECYCLING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	1467
Axmedov Sheramat Umurxojayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1472
Toxirova Gavxaroy Tolibjon qizi	
PROBLEMS AND SOLUTIONS IN THE INSTITUTIONAL TRANSFORMATION OF ACCOUNTING AND AUDITING SYSTEMS IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1477
Jumanazarov Ruzimurod, Rabbimov Elbek	
TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI VA ULARDAN MAMLAKATIMIZDA FOYDALANISH YO'NALISHLARI.....	1481
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
XORAZM VILOYATIDA SUV RESURSLARI TANQISLIGI VA TUPROQ DEGRADATSIYASINING MINTAQANING EKOLOGIK-IQTISODIY HOLATIGA TA'SIRI.....	1486
Djumaniyazov Farruxbek Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON EKSPORT SALOHIYATINING HUDUDIY TAFOVUTLARI TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA (2021-2025)	1491
Yaqubov San'at Shonazarovich	
KICHIK VA O'RTA AGROBIZNESLARNING EKSPORT SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1501
Muxitdinov Shuxrat Ziyavitdinovich	
WTO ACCESSION AND ECONOMIC DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM VIETNAM AND KAZAKHSTAN	1507
J.Ya. Nurillaev	
MILLIY IQTISODIYOTDA TASHQI EKOLOGIK ZARARLARNI ICHKILASHTIRISH MEXANIZMLARI	1513
Sodikov Zokir Rustamovich	
KRIPTOBIRJA AXBOROT TIZIMIDA SERVER YUKLAMASINI SAMARALI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1519
Shoaxmedova Nozima Xayrullayevna	
TEJAMKORLIK VA INNOVATSIYA: IQTISODIY O'SISHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	1524
Allaberganov Zakir G'ayibovich	
HUDUDIY RIVOJLANISHDA MAHALLIY BUDJET VA MOLIYAVIY MANBALARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH MEXANIZMLARI	1530
Sharipov Abror Komilovich	
O'ZBEKISTON O'RTA BIZNES KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR, SABABLAR VA KOMPLEKS YECHIMLAR.....	1538
Kutimov Baxtiyor, Abduraimova Maftunaxon Axmatovna	
FISKAL SIYOSAT VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: DAVLAT QARZI, INVESTITSIYALAR VA SOLIQ YUKLAMASI TA'SIRINING EKONOMETRIK BAHOLASHI.....	1541
Nazarova Ra'no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o'g'li	
YAYLOV CHORVACHILIGIDA HUDUDIY IXTISOSLASHUVNI SHAKLLANTIRISH VA BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI	1550
Xalmirzaev Axmadjan Axunovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA "YASHIL" MENEJMENTNI JORIY ETISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1555
Abdullaev Nokisbay Abdullaevich	



YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA YASHIL SOLIQLARNING AHAMIYATI: IQTISODIY TARAQQIYOT SARI YASHIL QADAM.....	1559
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolnizozov Murodbek Madiyarovich	
METHODOLOGICAL MODELS FOR THE DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY IN REGIONS	1566
Majidova Sanobar Daminovna	
UZBEKISTAN UTILIZES DIGITAL PLATFORMS TO PROMOTE SUSTAINABLE GROWTH IN TOURISM: A COMPARATIVE STUDY BASED ON THE BELT AND ROAD INITIATIVE.....	1573
Li Yang	
SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT JARAYONLARI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	1581
Tuyinov Botir Ismatovich	
TRANSFORMATION OF THE VOCATIONAL EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN: CULTURAL AND INSTITUTIONAL APPROACHES.....	1588
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
GULCHILIK TARMOG'IDA OILAVIY KASBIY SALOHİYATNI RIVOJLANTIRISH: TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA	1594
Nurmatova Dilola Dilshod qizi	
RAQAMLASHTIRISH BOSHQARUV INFRATUZILMASI SIFATIDA: O'ZBEKISTONDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR VA KORPORATIV BOSHQARUV.....	1599
Ruziyeva Barno Yadgarovna	
IJRO HUUJATLARINI MAJBURIY IJRO ETISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	1602
Matmuratova Nasiba Azatovna	
IJRO HUUJATLARI TALABLARINI BAJARISHDAN BO'YIN TOVLAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNI SODDALASHTIRISH MASALALARI	1607
Axmedov Zafarjon Zokirjon	
AHOLINI IJTIMOİY TA'MINOT TIZIMINING TAMOYILLARI VA UNING MOLİYAVIY MEXANIZMLARI	1611
Xusanov Baxodir Sheraliyevich	
BEYOND GREEN: THE ECONOMIC IMPACT OF ELECTRIC URBAN TRANSPORT INFRASTRUCTURE	1615
Khannarov Komiljon Karimovich, Shukurillaev Nizomiddin Akmaljon ugli	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLARNING QAYTMASLIGI (NPL) VA LIKVIDLIK: PUL OQIMLARIDAGI UZILISHLAR TAHLILI	1621
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
KREATIV SANOAT VA TURIZM INTEGRATSIYASI: ZAMONAVIY SHAHARLAR IQTISODIY MODELIDAGI YANGI YONDASHUV	1628
Raxmonova Nilufar Yorqinovna	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLİYALASHTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	1632
M.O.Yuldoshova	
ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SANOAT SEKTORIGA "YASHIL" INVESTITSİYALARNI JALB ETISH VA BOSHQARISH YO'LLARI.....	1636
Ibragimov Xaxid Taxirovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ВИРТУАЛЬНЫХ АКТИВОВ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВУЮ СИСТЕМУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1644
Xatamov Azizjon Abdumajitovich, Abduraupov Ruxtam Ramzovich	
AVTOMOBIL SANOATIDA BRENД STRATEGIYASINI RAQAMLI MARKETING VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH.....	1650
Boboyev L. Kadrxo'ja Djuraxodjayeovich	



AVTOMOBIL SANOATIDA BREN STRATEGIYASINI RAQAMLI MARKETING VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH

Boboyev L. Kadrxo'ja Djuraxodjeyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil tadqiqotchi

E-mail: lqadrxoja1@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada avtomobil sanoatida brend strategiyasini raqamli marketing vositalari orqali rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — avtomobil sanoati korxonalarida brend strategiyasini takomillashtirish jarayonida raqamli marketing vositalarining ahamiyatini aniqlash hamda ularning brend kapitali, iste'molchilar sodiqligi va korxonalar raqobatbardoshligiga ta'sirini baholashdan iborat. Maqolada raqamli marketing vositalarining avtomobil sanoatida brend strategiyasini rivojlantirishdagi roli, xususan, ijtimoiy tarmoqlar marketingi, qidiruv tizimlarini optimallashtirish (SEO), kontent marketingi, onlayn reklama platformalari hamda raqamli kommunikatsiya kanallarining samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: brend strategiyasi, raqamli marketing, raqamli marketing vositalari, strategik marketing, kontent marketingi, onlayn reklama, korxonalar raqobatbardoshligi.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the theoretical and practical aspects of developing brand strategy in the automotive industry through digital marketing tools. The main objective of the study is to determine the importance of digital marketing tools in improving brand strategies of automotive enterprises, as well as to assess their impact on brand equity, customer loyalty, and corporate competitiveness. The article examines the role of digital marketing tools in developing brand strategy in the automotive industry, particularly social media marketing, search engine optimization (SEO), content marketing, online advertising platforms, and the effectiveness of digital communication channels.

Key words: brand strategy, digital marketing, digital marketing tools, strategic marketing, content marketing, online advertising, corporate competitiveness.

Аннотация. В данной статье научно анализируются теоретические и практические аспекты развития бренд-стратегии в автомобильной промышленности с использованием инструментов цифрового маркетинга. Основной целью исследования является определение роли инструментов цифрового маркетинга в процессе совершенствования бренд-стратегии предприятий автомобильной отрасли, а также оценка их влияния на бренд-капитал, лояльность потребителей и конкурентоспособность предприятия. В статье рассматривается роль цифровых маркетинговых инструментов в развитии бренд-стратегии в автомобильной промышленности, в частности, маркетинг в социальных сетях, поисковая оптимизация (SEO), контент-маркетинг, онлайн-рекламные платформы и эффективность цифровых коммуникационных каналов.

Ключевые слова: бренд-стратегия, цифровой маркетинг, инструменты цифрового маркетинга, стратегический маркетинг, контент-маркетинг, онлайн-реклама, конкурентоспособность предприятия.

KIRISH

Avtomobil sanoati yuqori texnologiyali hamda kuchli raqobat muhitiga ega bo'lgan strategik tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu tarmoqda nafaqat ishlab chiqarish texnologiyalarining rivojlanishi, balki marketing strategiyalarining transformatsiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi avtomobil sanoatida marketing faoliyatining yangi bosqichga ko'tarilishiga olib keldi. An'anaviy reklama vositalari o'rmini bosqichma-bosqich raqamli marketing vositalari egallab, kompaniyalar brend strategiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda internet platformalari, ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv tizimlari hamda kontent marketingidan keng foydalanishni boshladilar [1].



Natijada, avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalar iste'molchilar bilan bevosita va interaktiv muloqot o'rnatish imkoniyatiga ega bo'lib, ushbu jarayon brend imijini mustahkamlash hamda iste'molchilar sodiqligini oshirishga xizmat qilmoqda (1-jadval).

1-jadval. Avtomobil sanoatida brend strategiyasini rivojlantirishda qo'llaniladigan raqamli marketing vositalari¹

№	Raqamli marketing vositasi	Mazmuni	Brend strategiyasiga ta'siri
1	Ijtimoiy tarmoqlar marketingi	Ijtimoiy media platformalari orqali marketing faoliyati	Brend tanilish darajasini oshiradi
2	Qidiruv tizimlari marketingi	Qidiruv tizimlarida reklama va optimallashtirish	Brendning onlayn ko'rinishini kuchaytiradi
3	Kontent marketingi	Video, maqola va multimedia kontentlari orqali marketing	Brendga bo'lgan ishonchni oshiradi
4	Onlayn reklama	Internet platformalarida reklama kampaniyalari	Maqsadli auditoriyaga tez yetib borishni ta'minlaydi

Mazkur jadvalda avtomobil sanoatida brend strategiyasini rivojlantirishda qo'llaniladigan asosiy raqamli marketing vositalari keltirilgan. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlar marketingi, qidiruv tizimlari marketingi, kontent marketingi hamda onlayn reklama platformalari avtomobil kompaniyalarining raqamli marketing strategiyasini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu vositalar kompaniyalarga maqsadli auditoriyaga tezkor yetib borish, marketing kommunikatsiyalarini samarali tashkil etish hamda brend tanilish darajasini oshirish imkonini beradi. Natijada raqamli marketing vositalaridan foydalanish avtomobil brendlarining marketing strategiyasini rivojlantirish va ularning bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Jahon avtomobil sanoatining rivojlanish tendensiyalari shuni ko'rsatadiki, raqamli marketing vositalari kompaniyalar uchun muhim strategik instrumentga aylanmoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, avtomobil xaridorlarining taxminan 95 foizi avtomobil sotib olishdan oldin internet orqali ma'lumot izlaydi va turli onlayn platformalar orqali avtomobillarni solishtiradi [2]. Shu sababli avtomobil kompaniyalari marketing strategiyasida raqamli kommunikatsiya kanallarining ulushi sezilarli darajada oshib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, video platformalar, onlayn reklama va qidiruv tizimlari orqali olib borilayotgan marketing kampaniyalari kompaniyalarga keng auditoriyaga tez va samarali yetib borish imkonini bermoqda. Masalan, avtomobil marketing kampaniyalarida raqamli reklama ko'rsatkichlari yuqori samaradorlikni namoyon etib, ayrim kampaniyalarda reklama bosilish koeffitsiyenti (CTR) 8 foizdan ortiqni tashkil etmoqda. Bu esa raqamli marketing vositalarining avtomobil sanoatida marketing samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynayotganini ko'rsatadi.

Raqamli marketing vositalarining rivojlanishi avtomobil sanoatida iste'molchilar xulq-atvorining o'zgarishiga ham olib kelmoqda. Avvallari avtomobil xaridorlari dilerlik markazlariga tashrif buyurish orqali mahsulot haqida ma'lumot olgan bo'lsalar, bugungi kunda ko'plab iste'molchilar, avvalo, internet orqali avtomobil haqida ma'lumot to'playdi, turli sharhlar va baholarni o'rganadi hamda keyin xarid qarorini qabul qiladi. Ijtimoiy tarmoqlar, video sharhlar va foydalanuvchilar fikrlarini aks ettiruvchi platformalar brend imijining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda [3]. Shu sababli zamonaviy avtomobil kompaniyalari marketing strategiyasida kontent marketingi, ijtimoiy tarmoqlar marketingi (SMM), qidiruv tizimlari optimallashtirish (SEO) hamda maqsadli onlayn reklama kabi vositalardan keng foydalanmoqda.

Avtomobil sanoatida raqamli marketing vositalarining joriy etilishi kompaniyalarga iste'molchilar bilan samarali kommunikatsiya o'rnatish, marketing xarajatlarini optimallashtirish hamda brend tanilish darajasini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish kompaniyalarga iste'molchilar xulq-atvorini chuqur tahlil qilish, marketing kampaniyalarining samaradorligini baholash hamda maqsadli auditoriyaga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqish imkonini yaratadi. Shu sababli avtomobil sanoatida brend strategiyasini raqamli marketing vositalari orqali rivojlantirish masalasi marketing nazariyasi va amaliyotida dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida qaraladi.

So'nggi yillarda avtomobil sanoatida raqamli marketing texnologiyalarining qo'llanilishi innovatsion marketing strategiyalarining rivojlanishiga ham turtki bermoqda. Xususan, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (big data) hamda virtual reallik texnologiyalaridan foydalanish orqali kompaniyalar marketing jarayonlarini yanada takomillashtirmoqda. Bunday texnologiyalar iste'molchilarga avtomobillarni virtual tarzda ko'rib chiqish, texnik xususiyatlarini o'rganish hamda avtomobil tanlash jarayonini soddalashtirish imkonini beradi [4]. Natijada raqamli marketing vositalari avtomobil kompaniyalarining marketing strategiyasini rivojlantirishda muhim omilga aylanmoqda.

1 Muallif ishlanmasi.



O'zbekiston iqtisodiyotida ham raqamli texnologiyalar va internet infratuzilmasining rivojlanishi marketing faoliyatining transformatsiyasiga olib kelmoqda. So'nggi yillarda mamlakatda internetdan foydalanish darajasi keskin oshib, 2025-yilga kelib internet qamrovi 94 foizdan ortiqni tashkil etdi. Bu esa kompaniyalar uchun raqamli marketing vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda.

Shu bilan birga, mamlakat media bozorida raqamli kanallarning ulushi ham ortib bormoqda va 2025-yilga kelib raqamli segment umumiy media bozorining qariyb 30 foizini tashkil etishi prognoz qilinmoqda [5]. O'zbekiston avtomobil bozorida ham onlayn platformalar orqali avtomobil tanlash va xarid qilish jarayoni kengayib bormoqda; hatto ayrim tadqiqotlarga ko'ra, avtomobil savdolarining yarmidan ortig'i onlayn platformalar orqali amalga oshirilmoqda.

Mazkur jarayon avtomobil sanoati korxonalarida brend strategiyasini raqamli marketing vositalari orqali rivojlantirish, marketing kommunikatsiyalarini raqamlashtirish hamda iste'molchilar bilan samarali onlayn muloqot tizimini shakllantirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Avtomobil sanoatida brend strategiyasini raqamli marketing vositalari orqali rivojlantirish masalasi marketing nazariyasi, strategik menejment hamda raqamli iqtisodiyot yo'nalishlarida faol o'rganilayotgan ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi marketing faoliyatining shakl va usullarini tubdan o'zgartirib, kompaniyalarning iste'molchilar bilan o'zaro aloqalarini yangi bosqichga olib chiqdi. Internet platformalari, ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv tizimlari hamda raqamli kommunikatsiya kanallarining keng qo'llanilishi brend strategiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda muhim omilga aylanmoqda. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli marketing strategiyalari kompaniyalarga iste'molchilar bilan bevosita muloqot o'rnatish, marketing kampaniyalarining samaradorligini oshirish hamda brend kapitalini mustahkamlash imkonini beradi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda raqamli marketing va brend strategiyasi masalalarini chuqur o'rgangan olimlardan biri — Philip Kotler hisoblanadi. Kotler marketingni iste'molchilar uchun qiymat yaratish hamda ular bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan strategik jarayon sifatida talqin qiladi [6]. Uning fikriga ko'ra, zamonaviy marketingda raqamli texnologiyalar kompaniyalarga iste'molchilar bilan interaktiv muloqot o'rnatish hamda marketing strategiyalarini yanada moslashuvchan shaklda amalga oshirish imkonini beradi.

Raqamli marketing strategiyalarini tizimli tarzda o'rgangan olimlardan yana biri — Dave Chaffey hisoblanadi. U raqamli marketingni tashkilotlarning marketing maqsadlariga erishish uchun internet va raqamli texnologiyalardan foydalanishga asoslangan strategik jarayon sifatida izohlaydi [7]. Chaffeyning ta'kidlashicha, raqamli marketing strategiyasini ishlab chiqishda kompaniyalar iste'molchilar xulq-atvorini, onlayn kommunikatsiya kanallarini hamda marketing texnologiyalarining imkoniyatlarini kompleks tarzda hisobga olishi zarur.

Ijtimoiy tarmoqlar marketingi va raqamli kommunikatsiya vositalarining brend strategiyasiga ta'sirini o'rgangan olimlardan biri — Brian Solis hisoblanadi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, ijtimoiy media platformalari kompaniyalar uchun iste'molchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, brend imijini shakllantirish hamda marketing kampaniyalarining samaradorligini oshirish imkonini beradi [8]. Solis ijtimoiy tarmoqlar marketingi zamonaviy marketing strategiyasining ajralmas qismiga aylanganini ta'kidlaydi.

Avtomobil sanoatida raqamli marketing vositalarining qo'llanilishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda M. Cowley-Cunningham ham muhim ilmiy hissa qo'shgan. Uning fikriga ko'ra, zamonaviy avtomobil kompaniyalari raqamli kommunikatsiya kanallaridan foydalanish orqali marketing jarayonlarini yanada samarali tashkil etishi hamda iste'molchilar bilan uzoq muddatli aloqalarni rivojlantirishi mumkin [9]. Raqamli marketing texnologiyalari avtomobil brendlarining marketing strategiyasini rivojlantirishda muhim instrument sifatida namoyon bo'lmoqda.

MDH mamlakatlari olimlari ham marketing strategiyasi va brend boshqaruvi masalalarini o'rganishda muhim ilmiy hissa qo'shgan. Masalan, rus iqtisodchi olimi G. Bagiev marketingni korxon boshqaruvining muhim instrumenti sifatida talqin qilib, marketing kommunikatsiyalarini rivojlantirish kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [10]. Uning fikriga ko'ra, raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish korxonalarga marketing faoliyatini optimallashtirish hamda iste'molchilar bilan samarali aloqalar o'rnatish imkonini beradi.

Marketing strategiyasini global bozor sharoitida o'rgangan olimlardan biri — I. Gerchikova hisoblanadi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, zamonaviy kompaniyalar marketing strategiyalarini ishlab chiqishda raqamli texnologiyalar, bozor infratuzilmasi hamda iste'molchilar xulq-atvoridagi o'zgarishlarni hisobga olishi zarur [11]. Gerchikova marketing strategiyalarining samaradorligi ko'p jihatdan kommunikatsiya kanallarining to'g'ri tanlanishi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi.

Raqamli marketing va innovatsion marketing strategiyalarini o'rganishda rus olimasi L. Danchenok ham muhim ilmiy hissa qo'shgan [12]. Uning fikriga ko'ra, raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish



korxonalariga marketing faoliyatining samaradorligini oshirish, iste'molchilar ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish hamda innovatsion marketing strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan B. Salimov marketing boshqaruvi tizimini takomillashtirish masalalarini o'rganib, zamonaviy marketing strategiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [13]. Uning fikriga ko'ra, raqamli marketing vositalaridan samarali foydalanish korxonalariga marketing xarajatlarini optimallashtirish, brend tanilish darajasini oshirish hamda bozordagi raqobat ustunligini ta'minlash imkonini beradi.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, avtomobil sanoatida brend strategiyasini raqamli marketing vositalari orqali rivojlantirish jarayoni marketing kommunikatsiyalari, innovatsion texnologiyalar hamda iste'molchilar xulq-atvori bilan chambarchas bog'liqdir. Xorijiy va MDH mamlakatlari olimlarining ilmiy qarashlari raqamli marketing vositalarining samarali qo'llanilishi kompaniyalar brend strategiyasining rivojlanishiga hamda ularning global bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda avtomobil sanoatida brend strategiyasini raqamli marketing vositalari orqali rivojlantirish jarayonini o'rganish hamda ushbu jarayonning korxonalar marketing samaradorligi va raqobatbardoshligiga ta'sirini baholash maqsadida kompleks ilmiy metodologiya qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv asosida marketing nazariyasi, brend boshqaruvi konsepsiyasi hamda raqamli marketing strategiyalariga oid ilmiy qarashlardan foydalanildi.

Shuningdek, ilmiy tahlil, qiyosiy tahlil, kontent tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil hamda ilmiy umumlashtirish usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Avtomobil sanoatida brend strategiyasini raqamli marketing vositalari orqali rivojlantirish jarayonini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy marketing faoliyatida raqamli kommunikatsiya kanallari kompaniyalar uchun muhim strategik instrumentga aylangan. Raqamli marketing vositalari orqali avtomobil ishlab chiqaruvchilar iste'molchilar bilan bevosita va interaktiv aloqa o'rnatish, marketing kampaniyalarining samaradorligini oshirish hamda brend imijini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Internet texnologiyalari va mobil platformalarning rivojlanishi natijasida marketing jarayonlari an'anaviy reklama vositalaridan raqamli marketing vositalariga bosqichma-bosqich o'tmoqda. Ushbu jarayon avtomobil kompaniyalarining marketing strategiyasini yanada moslashuvchan va samarali shaklda tashkil etish imkonini yaratmoqda.

Raqamli marketing vositalari avtomobil sanoatida brend strategiyasini rivojlantirishning bir nechta asosiy yo'nalishlarini qamrab oladi.

Birinchidan, ijtimoiy tarmoqlar marketingi (SMM) avtomobil brendlarining ommaviy auditoriya bilan samarali muloqot o'rnatishiga xizmat qilmoqda. Facebook, Instagram, YouTube va boshqa platformalar orqali kompaniyalar yangi mahsulotlar haqida ma'lumot berish, marketing kampaniyalarini o'tkazish hamda iste'molchilarning fikr-mulohazalarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar orqali olib borilayotgan marketing faoliyati kompaniyalariga brend imijini shakllantirish va iste'molchilar sodiqligini oshirishga yordam beradi.

Ikkinchidan, qidiruv tizimlari marketingi (SEO va SEM) avtomobil kompaniyalarining raqamli marketing strategiyasida muhim o'rin tutadi. Avtomobil xaridorlarining katta qismi internet orqali avtomobillar haqida ma'lumot izlaydi, turli modellarni solishtiradi hamda onlayn sharhlarni o'rganadi. Shu sababli avtomobil kompaniyalari qidiruv tizimlarida o'z brendlarini faol targ'ib qilishga katta e'tibor qaratmoqda. Qidiruv tizimlarini optimallashtirish orqali kompaniyalar o'z mahsulotlari haqidagi ma'lumotlarni keng auditoriyaga yetkazish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Uchinchidan, kontent marketingi avtomobil brendlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Video sharhlar, virtual taqdimotlar, test-drayv videolari hamda ekspert tahlillari orqali kompaniyalar iste'molchilarga mahsulot haqida batafsil ma'lumot beradi. Bunday kontent marketing strategiyalari iste'molchilar ishonchini oshirish hamda brend haqidagi ijobiy tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, avtomobil kompaniyalari tomonidan tayyorlanayotgan video kontentlar ko'plab foydalanuvchilar tomonidan tomosha qilinib, marketing kampaniyalarining samaradorligini oshirishga yordam bermoqda.

Raqamli marketing vositalarining avtomobil sanoatida qo'llanilishi marketing xarajatlari samaradorligini oshirishga ham xizmat qilmoqda. An'anaviy reklama vositalariga nisbatan raqamli marketing vositalari orqali maqsadli auditoriyani aniqlash, reklama samaradorligini o'lchash hamda marketing strategiyasini tezkor ravishda moslashtirish imkoniyati mavjud [14]. Shu sababli ko'plab avtomobil kompaniyalari marketing byudjetining muhim qismini raqamli marketing faoliyatiga yo'naltirmoqda. Ayrim tadqiqotlarga ko'ra, avtomobil

marketing kampaniyalarida raqamli reklama vositalarining ulushi so'nggi yillarda sezilarli darajada oshib, marketing faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Shuningdek, raqamli marketing vositalari avtomobil kompaniyalariga iste'molchilar xulq-atvorini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Katta ma'lumotlar (big data), sun'iy intellekt hamda marketing analitikasi vositalari orqali kompaniyalar iste'molchilarning qiziqishlari, xarid qilish odatlari hamda marketing kampaniyalariga bo'lgan reaksiyalarini o'rganadi [15]. Bunday tahlillar asosida kompaniyalar marketing strategiyasini yanada takomillashtirib, iste'molchilarga moslashtirilgan marketing takliflarini ishlab chiqadi. Natijada raqamli marketing vositalari avtomobil brendlarining marketing strategiyasini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda (1-rasm).



1-rasm. Avtomobil sanoatida brend strategiyasini raqamli marketing vositalari orqali rivojlantirish jarayoni²

Mazkur sxemada avtomobil sanoatida brend strategiyasini raqamli marketing vositalari orqali rivojlantirish jarayoni tizimli tarzda tasvirlangan. Sxemaga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlar marketingi, qidiruv tizimlari marketingi hamda kontent marketingi va onlayn reklama kabi raqamli marketing vositalari avtomobil brendlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu vositalar raqamli kommunikatsiya, marketing analitikasi hamda maqsadli reklama strategiyalari orqali amalga oshiriladi.

Natijada brend tanilishi, brendga bo'lgan ishonch hamda mijozlar sodiqliqi shakllanib, brend kapitalining oshishi va korxonalar raqobatbardoshligining kuchayishiga olib keladi. Yakuniy natijada esa marketing faoliyatining umumiy samaradorligi ta'minlanadi.

O'zbekiston avtomobil bozorida ham raqamli marketing vositalaridan foydalanish tendensiyasi tobora kuchayib bormoqda. So'nggi yillarda mamlakatda internet foydalanuvchilari sonining ortishi, mobil internet infratuzilmasining rivojlanishi hamda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasining oshishi kompaniyalar uchun yangi marketing imkoniyatlarini yaratdi. Ayrim tadqiqotlarga ko'ra, mamlakatda internet foydalanuvchilari soni 30 milliondan ortiqni tashkil etib, bu ko'rsatkich marketing faoliyatining raqamli kanallarga o'tishiga turtki bermoqda.

O'zbekiston avtomobil kompaniyalari ham ijtimoiy tarmoqlar, onlayn reklama platformalari hamda raqamli kontent marketingidan faol foydalanishni boshladi. Masalan, avtomobil ishlab chiqaruvchilarning rasmiy ijtimoiy tarmoq sahifalari orqali yangi avtomobil modellarini taqdim etish, marketing aksiyalarini e'lon qilish hamda mijozlar bilan bevosita muloqot o'rnatish amaliyoti keng qo'llanilmoqda.

Mazkur jarayon avtomobil sanoatida brend strategiyasini raqamli marketing vositalari orqali rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Natijada raqamli marketing texnologiyalarini joriy etish avtomobil kompaniyalarining marketing strategiyasini takomillashtirish hamda ularning bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

2 Muallif ishlanmasi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot doirasida avtomobil sanoatida brend strategiyasini raqamli marketing vositalari orqali rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari o'rganilib, ushbu jarayonning korxonalar marketing faoliyati hamda raqobatbardoshligiga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli marketing vositalari zamonaviy avtomobil sanoatida brend strategiyasini shakllantirish va rivojlantirishda muhim strategik instrumentga aylangan. Internet texnologiyalarining rivojlanishi, ijtimoiy tarmoqlar marketingi, qidiruv tizimlarini optimallashtirish hamda kontent marketingi kompaniyalarga iste'molchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, marketing jarayonlarini optimallashtirish hamda brend tanilish darajasini oshirish imkonini bermoqda.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, raqamli marketing vositalarining samarali qo'llanilishi avtomobil kompaniyalariga marketing strategiyasini yanada moslashuvchan va samarali shaklda tashkil etish imkonini beradi. Raqamli marketing platformalari orqali kompaniyalar maqsadli auditoriyani aniqlash, marketing kampaniyalarining samaradorligini baholash hamda iste'molchilar xulq-atvorini chuqur tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, raqamli marketing vositalari marketing xarajatlarini optimallashtirish, reklama samaradorligini oshirish hamda brend kapitalini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, avtomobil sanoatida brend strategiyasini rivojlantirish jarayonida ijtimoiy tarmoqlar marketingi, qidiruv tizimlari marketingi, kontent marketingi hamda onlayn reklama platformalari muhim rol o'ynaydi. Ushbu vositalar kompaniyalarga iste'molchilar bilan interaktiv muloqot o'rnatish, marketing kommunikatsiyalarini samarali tashkil etish hamda brend imijini mustahkamlash imkonini beradi. Natijada raqamli marketing vositalari avtomobil kompaniyalarining marketing strategiyasini rivojlantirish va ularning global bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, avtomobil sanoatida brend strategiyasini raqamli marketing vositalari orqali rivojlantirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, avtomobil kompaniyalarida raqamli marketing strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonini tizimli ravishda tashkil etish zarur. Bunda marketing faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish, marketing kommunikatsiyalarini raqamlashtirish hamda onlayn marketing kanallaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, avtomobil kompaniyalari ijtimoiy tarmoqlar marketingini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishi lozim. Ijtimoiy media platformalari orqali iste'molchilar bilan bevosita muloqot o'rnatish, brend imijini shakllantirish hamda marketing kampaniyalarining samaradorligini oshirish mumkin.

Uchinchidan, kontent marketing strategiyalarini rivojlantirish avtomobil brendlarining marketing samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Video sharhlar, virtual taqdimotlar, test-drayv materiallari hamda interaktiv kontent orqali iste'molchilarga mahsulot haqida batafsil ma'lumot berish brendga bo'lgan ishonchni oshiradi.

To'rtinchidan, marketing analitikasi hamda katta ma'lumotlar (big data) texnologiyalaridan foydalanish marketing strategiyasining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bunday texnologiyalar kompaniyalarga iste'molchilar xulq-atvorini chuqur tahlil qilish hamda maqsadli marketing strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Beshinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan O'zbekiston avtomobil sanoatida raqamli marketing texnologiyalaridan keng foydalanish zarur. Bu jarayon milliy avtomobil brendlarining tanilish darajasini oshirish, marketing kommunikatsiyalarini takomillashtirish hamda kompaniyalar raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, avtomobil sanoatida brend strategiyasini raqamli marketing vositalari orqali rivojlantirish marketing boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda kompaniyalar raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar raqamli marketing strategiyalarini chuqur o'rganish, innovatsion marketing texnologiyalarini joriy etish hamda avtomobil sanoatida brend boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank. Global Economic Prospects. — Washington, DC: World Bank Publications, 2024. — 256 p.
2. Ryan, D. Understanding Digital Marketing: Marketing Strategies for Engaging the Digital Generation. 4th ed. — London: Kogan Page, 2016. — 304 p.
3. Hollensen, S. Marketing Management: A Relationship Approach. 3rd ed. — Pearson Education Limited, 2015. — 824 p.
4. Statista Research Department. Global Digital Marketing Report. — Hamburg: Statista GmbH, 2024. — 120 p.
5. UzAuto Motors. Financial Statements (1H-2025). — Available at: <https://uzautomotors.com/documents/financial-statements-uam-1h-2025-with-signature-and-stamp.pdf>
6. Philip Kotler, Keller, K. Marketing Management. 15th ed. — Pearson Education Limited, 2016. — 714 p.
7. Dave Chaffey, Ellis-Chadwick, F. Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice. 7th ed. — Pearson Education Limited, 2019. — 646 p.



8. Brian Solis. Engage!: The Complete Guide for Brands and Businesses to Build, Cultivate, and Measure Success in the New Web. — New Jersey: John Wiley & Sons, 2010. — 320 p.
9. Cowley-Cunningham, M. Digital Marketing in the Automotive Industry. — Journal of Digital Marketing Research, 2018. — pp. 1–16.
10. Багиев, Г., Тарасевич, В., Анн, Х. Маркетинг. — Санкт-Петербург: Питер, 2012. — 736 с.
11. Герчикова, И. Маркетинг: учебник для вузов. — Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2011. — 503 с.
12. Данченко, Л. Маркетинг инноваций. — Москва: Юрайт, 2014. — 272 с.
13. Salimov, B. Marketing boshqaruvi. — Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2018. — 312 b.
14. Strauss, J., Frost, R. E-Marketing. 7th ed. — Pearson Education Limited, 2014. — 480 p.
15. European Automobile Manufacturers Association. Economic and Market Report: Automotive Industry Trends. — Brussels, 2024. — 110 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
